O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIK VA TIKUV-TRIKOTAJ SANOATI RIVOJLANISHINING MILLIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI O'RNI	819
Ikramova Taxmina Latifovna	
YANGI RIVOJLANAYOTGAN BOZORLARIDA HR QAROR QABUL QILISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA IQTISODIY TA'LIMNING ROLI	824
Dilfuza Shokirova	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO BUXGALTERIYA STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	833
Abdiev Mutolib Anvar o'g'li	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI	838
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
AKTIVLAR VA MAJBURIYATLARNI MHXS ASOSIDA BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	842
G'anibayev Iloxomjon Shokiraliyevich	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH JARAYONINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA HUDUDIIY IQTISODIY RIVOJLANISH BILAN BOG'LIQLIGI	847
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, Turdimuratova Aziza Alisherovna	
AGRAR ISHLAB CHIQUARISHNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA "QISHLOQ XO'JALIGI-4.0" VA "AQLLI QISHLOQ XO'JALIGI" KONSEPSIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	851
Yusupov Muxiddin Soatovich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI GURUHLASH VA BAHOLASH.....	860
Davlyatov Bekzodjon Aslanxojayevich	
TA'LIM TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA XORIY TAJRIBASINING AHAMIYATI	864
Sobirov Shaxzod Ozod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	868
Karimov Mirolimjon Karimjon o'g'li	
ПРОБЛЕМЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	875
Аликулов С. А., Хамракулова О. Д.	
YASHIL IQTISODIYOTDA KORXONALAR BOSHQARUV MEKANIZMLARINING EVOLYUTSIYASI: KONSEPTUAL TAHLIL.....	880
Nabiev Bobur Muhammadqosim o'g'li	
SUD-HUQUQ TIZIMINI YANADA DEMOKRATLASHTIRISH: JORIY HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	884
Majidov Muslimbek Maxamadjon o'g'li	



IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA KLASSTERLARNI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	889
Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	893
Shaymanova Nigora Yusupovna	
XO'JALIK FAOLIYATINI SAMARADORLIGI VA BIZNES HOLATINI BAHOLASH	899
Abdukarimova Muslima Abduaziz qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
CROSS-BORDER E-COMMERCE IN CENTRAL ASIA.....	904
Bakhtiyorjon Komilov	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY SEKTOR ISHCHILARINING PENSIYA TA'MINOTI MASALALARI.....	908
Abdulazizova Nargiza Baxodir qizi	
KORXONA VA TASHKILOTLARDA QOG'OZ SARFINI OPTIMALLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBASI	913
Oripov Mirzo Mahmudovich	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЗАЩИТЕ ВНУТРЕННЕГО РЫНКА ОТ КОНТРАФАКТНОЙ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН).....	917
Ибраимова Махсура Уснатдин кизи	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	922
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi	
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES ON THE PROCESSES OF DIGITAL TRANSFORMATION IN THE INSURANCE INDUSTRY.....	927
D.D.Omonova	
THE ROLE OF INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS IN THE GLOBAL ECONOMY AND THEIR STAGES OF DEVELOPMENT	933
Yovkochev Sherzod	
YURIDIK SHAXSLARNI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILAR TOIFASIGA KIRITISH MEZONLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	941
To'raqulov Bekzod Hazratqul o'g'li	
BUTUNJAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LIHDA SOLIQ TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	945
Xojakbar Zaynabidinov	
BANK TIZIMIDA TAVAKKALCHILIK TUSHUNCHASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	950
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
REAL SEKTOR TARMOQLARINI KREDITLASHDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	955
Savurbayev Zafar Abdumuminovich	
INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK OMILLARI VA ULARNING BOSHQARUVI	960
D. G. Bazarov	
YANGI O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK SOHASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA KOMPLEKS TIZIMLASHTIRISH	966
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
XIZMATLAR KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSIYA FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLI TAVSIYALAR	971
Xudayberdiyeva Nargiza Nizomiddin qizi	



XIZMATLAR KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSIYA FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLI TAVSIYALAR

Xudayberdiyeva Nargiza Nizomiddin qizi

Namangan davlat universiteti

“Menejment” kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

E-mail: shin-set-sunan@mail.ru

ORCID: 0000-0003-1794-8888

Annotatsiya. Maqolada xizmat ko'rsatish korxonalarini innovatsion rivojlantirish zarurati, mamlakatimizda sohani rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor hamda mehmonxona xizmatlarini taklif etuvchi korxonalarda innovatsion faoliyat samaradorligini baholashning asosiy tamoyillari bayon etilgan. Shuningdek, mehmonxonalarda innovatsion faoliyatni samarali boshqarishni tashkil etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsiya faoliyati, Employee-to-room ratio, bronlash, xizmatlar hajmi, real talab.

Abstract. The article discusses the necessity of innovative development in service enterprises, the attention being paid to the development of this sector in our country, and the fundamental principles for assessing the effectiveness of innovative activities in enterprises offering hotel services. In addition, practical recommendations have been developed for organizing the effective management of innovative activities in hotels.

Key words: innovation activity in service enterprises, Employee-to-room ratio, booking, volume of services, real demand.

Аннотация. В статье рассматривается необходимость инновационного развития предприятий сферы услуг, внимание, уделяемое развитию данной отрасли в нашей стране, а также основные принципы оценки эффективности инновационной деятельности предприятий, предоставляющих гостиничные услуги. Кроме того, разработаны практические рекомендации по организации эффективного управления инновационной деятельностью в гостиницах.

Ключевые слова: инновационная деятельность в предприятиях сферы услуг, коэффициент «сотрудник–номер» (Employee-to-room ratio), бронирование, объем услуг, реальный спрос.

KIRISH

Xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsiya faoliyatining samarali yuritilishi korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi va milliy iqtisodiyotning jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitida ushbu sohaga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirmoqda. Ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish va boshqarish maqsadida iste'molchilar talablarini o'rganishga qaratilgan marketing faoliyati, xodimlarni innovatsion loyihalarni ishlab chiqishga jalb etish hamda fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga keng joriy etish amaliyoti allaqachon takomillashtirilgan. Xizmat ko'rsatish korxonalarida ham innovatsion jarayonlarni muntazam yo'lga qo'yish va ularning samaradorligiga erishish masalasi boshqa rivojlanayotgan davlatlardagi kabi O'zbekiston sharoitida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

“O'zbekiston–2030” strategiyasida hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish g'oyasi ilgari surilgan bo'lib, ayniqsa o'rta va yirik shaharlar hamda aholisi 300 ming nafardan ortiq bo'lgan tumanlarda zamonaviy bozor xizmatlari — IT, ta'lim, tibbiyot, yuridik xizmatlar, san'at, turizm, mehmonxona xo'jaligi, umumiy ovqatlanish va transport xizmatlarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu xizmatlarning takomillashuvi, avvalo, ularga doir innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va joriy etish, innovatsion jarayonlarni samarali tashkil etish hamda boshqarish mexanizmlariga bevosita bog'liqdir.



Mazkur maqola xizmat ko'rsatish korxonalarida mavjud muammolarni tahlil qilish, innovatsion jarayonlarni boshqarishning nazariy va amaliy asoslarini yoritish, shuningdek, xalqaro tajribani O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan. Maqola IMRAD talablari asosida tuzilgan bo'lib, quyidagi vazifalarni qamrab oladi:

- xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarishning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish;
- O'zbekiston va boshqa rivojlanayotgan davlatlar mehmonxonalari innovatsion faoliyat samaradorligini baholash;
- xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion jarayonlarni tashkil etish natijalarini aniqlash;
- mehmonxonalarda innovatsion faoliyatni samarali boshqarishni tashkil etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.

Shu tariqa, xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion boshqaruv asoslarini chuqur o'rganish bugungi iqtisodiy sharoitda nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham nihoyatda muhim masala hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmatlar sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 70 foizdan yuqori bo'lgan Yevropa va boshqa rivojlangan davlatlarda ushbu sohada innovatsion faoliyatni rivojlantirishga doir ilmiy tadqiqotlar 2007–2010-yillardan boshlab iqtisodchi olimlar e'tiborini faol torta boshlagan. Mazkur davrgacha xizmatlar sohasida asosan texnologik innovatsiyalarni joriy etish ustuvor yo'nalish bo'lib kelgan, texnologik bo'lmagan (marketing, boshqaruv, xizmat jarayonlarini transformatsiya qilish kabi) innovatsiyalarning soha korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishdagi roli aynan shu yillarda chuqur o'rganila boshlandi. Bu holat xizmatlar sohasida innovatsiyalarning tutgan o'rni haqidagi tadqiqotlar (Mas-Verdu et al., 2010; Zortea-Johnston et al., 2011) [1,2] hamda xizmatlar sektorida innovatsion jarayonlarni boshqarish mexanizmlariga bag'ishlangan ilmiy ishlar (Abreu et al., 2010; Junarsin, 2010; Uriona-Maldonado et al., 2010; Ward, 2010; Gallouj & Djellal, 2010) [3,4,5,6,7] tahlili orqali tasdiqlanadi.

Yevropa tadqiqotchilaridan tashqari, Rossiya olimlari Z. K. Aliyeva, V. Y. Pyateskiy va T. Y. Kikularning ilmiy ishlari ham xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion boshqaruv masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda xizmat ko'rsatish korxonalarining raqobatbardoshligi va innovatsion rivoji bilan bog'liq nazariy yondashuvlar yoritilgan [8,9,10].

Xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarish masalasini tahlil qilishda "korxonaning innovatsion rivoji" tushunchasi alohida o'rin tutadi. Bugungi kunda mazkur tushunchaning bir nechta ilmiy ta'riflari mavjud. Serdyukova innovatsion rivojlanishni ijtimoiy tizim va iqtisodiyotning barcha sohalarida ilm-fan va texnika yutuqlari asosida qayta shakllanish jarayoni sifatida talqin etadi hamda innovatsion madaniyat va innovatsion imkoniyatlarni kengaytiruvchi loyihalar amalga oshirilishini zarur hisoblaydi [11]. Zashukning fikricha, innovatsion rivojlanish — bu innovatsion jarayonning muayyan bosqichlarida innovatsiyalarni yaratish va joriy etishga qaratilgan inson faoliyati [12]. Mixaylov esa ushbu tushunchaga yanada kengroq ta'rif berib, xo'jalik yurituvchi subyektning innovatsion rivojlanishini ilmiy bilimlar, g'oyalar, kashfiyotlar va mavjud texnologiyalarni yangi yoki takomillashtirilgan qadriyatga aylantirish jarayoni sifatida izohlaydi. Uning ta'kidlashicha, mazkur jarayon iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va korxona raqobatbardoshligini oshirish maqsadida tashkiliy, ishlab chiqarish, energiya va iqtisodiy resurslardan foydalanishda sifat jihatidan o'zgarishlarni talab etadi [13].

Xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsiyalar, avvalo, yangi xizmat turlarini yaratish va mavjud xizmatlar sifatini oshirish jarayonida namoyon bo'ladi. Mazkur mavzu doirasida amalga oshirilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion g'oyalar manbai faqat menejerlar yoki yuqori malakali mutaxassislargagina bog'liq bo'lmay, balki xizmat ko'rsatish korxonalarining oddiy xodimlari, mijozlar, hamkorlar, resurs yetkazib beruvchilar va hatto potensial iste'molchilar tomonidan ham taklif qilinishi mumkin. Innovatsion boshqaruv samaradorligi aynan barcha ishtirokchilarni jarayonga to'liq jalb etilgandagina namoyon bo'ladi. Bu holat xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion boshqaruvning ishlab chiqarish korxonalaridagi innovatsion boshqaruvdan farqlanuvchi asosiy xususiyatlaridan biri ekanini anglatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

So'nggi yillarda mehmondo'stlik sanoati jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bunga asosiy sabab dam olish yoki biznes maqsadlarida sayohat qiluvchilar sonining izchil ortib borayotganidir. Bozorda mehmonxonalar sonining ko'payishi bilan mehmonxona korxonalaridan raqobatbardosh bo'lish, samarali faoliyat yuritish va mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish uchun eng yaxshi boshqaruv amaliyotlarini qo'llashi talab etiladi.

Tadqiqotning amaliy qismi sifatida Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan uchta mehmonxona — "Axsikent", "Shedevr Plaza" va "Turkiston" mehmonxonalarining asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Ushbu



mehmonxonalarning iqtisodiy natijalari o'rganildi, xususan, ularning Employee-to-room ratio (Staff-to-room ratio) ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi. Mazkur ko'rsatkich mehmonxona xodimlari sonining mehmonxona o'rin (xona)lari soniga nisbatan samaradorligini baholash imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot davomida mehmonxonalarni to'liq raqamli rezervlash (booking) tizimiga o'tkazish samaradorligi ham tahlil qilindi. Mehmonxona fondidan foydalanish darajasi maxsus formula asosida hisoblab chiqilib, raqamli rezervlash tizimi joriy etilgan sharoitda o'rinlardan foydalanish imkoniyati aniqlandi. Mazkur yondashuv mehmonxonalar faoliyatida innovatsion boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda Namangan viloyatida 36 dan ortiq mehmonxona faoliyat yuritmoqda. Joylashtirish vositalarining umumiy soni 673 tadan oshgan bo'lib, viloyat Respublikada turizm sohasi uchun xizmat ko'rsatuvchi joylashtirish vositalari soni bo'yicha Toshkent viloyati va Toshkent shahridan keyin 3-o'rinni egallamoqda. Mazkur o'sish viloyatda mehmon uylari, sanatoriyalar, dam olish va sog'lomlashtirish maskanlari sonining ko'payishi, shuningdek turizm imkoniyatlaridan oqilona foydalanish hamda yangi turizm yo'nalishlarini rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor natijasidir.

Uchta tanlangan mehmonxona faoliyatini tahlil qilish natijalari 2023-yil ma'lumotlariga asoslangan. "Turkiston" mehmonxonasida o'rinlar soni 122 ta, boshqaruvchi xodimlar 3 nafar, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar 15 nafarni tashkil etadi. "Shedevr Plaza" mehmonxonasida o'rinlar soni 100 ta, boshqaruvchi xodimlar 6 nafar, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar 27 nafar. "Axsikent" mehmonxonasida esa 75 ta o'rin, 3 nafar boshqaruvchi va 25 nafar xizmat ko'rsatuvchi xodim mavjud.

O'rinlar soni ko'p bo'lishiga qaramay, "Turkiston" mehmonxonasida jami xodimlar soni atigi 18 nafarni tashkil etadi. Mehmonxonalardagi ishchi-xodimlar samaradorligini baholash uchun xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan Employee-to-room ratio (Staff-to-room ratio) ko'rsatkichi hisoblab chiqildi. Ko'rsatkich quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$ERR = \frac{HR}{R}$$

Natijalar quyidagicha:

- "Turkiston": 0,24 (18/75)
- "Shedevr Plaza": 0,52 (33/63)
- "Axsikent": 1,12 (28/25)

Bu shuni anglatadiki, "Turkiston" mehmonxonasida har 4 ta xonaga 1 ta xodim, "Shedevr Plaza"da 2 ta xonaga 1 ta xodim, "Axsikent"da esa har bir xonaga alohida xodim to'g'ri keladi. Xalqaro mehmondo'stlik amaliyotida ko'rsatkichning yuqori bo'lishi mehmonlarga individual va sifatli xizmat ko'rsatish imkoniyatini oshiradi. Shu bois, xizmat ko'rsatish sifati bo'yicha "Axsikent" mehmonxonasi nisbatan yuqori ko'rsatkichga ega.

Shuningdek, tahlillardan ko'rinadiki, "Axsikent" mehmonxonasi 2020-yildan buyon xonalar sonini oshirish bilan bir qatorda xodimlar sonini ham mutanosib ravishda ko'paytirib bormoqda. Bu esa mehmonxonada jahon standartlariga mos strategik boshqaruv tizimi yo'lga qo'yilganidan dalolat beradi.

Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, jami xarajatlar va sof foydaning so'nggi uch yillik o'sish dinamikasi ham "Axsikent" mehmonxonasida yuqori bo'lib, xarajatlarning asosiy qismi yangi xizmatlar yo'lga qo'yish va mavjud xizmatlar sifatini oshirishga yo'naltirilgan. Bu esa mazkur mehmonxonada innovatsion jarayonlarni tashkil etish va ularni samarali boshqarish yuqori darajada ekanini ko'rsatadi.

Bronlash (booking) asosida mehmonlar oqimini solishtirganda, 2021–2023-yillar davomida "Shedevr Plaza" mehmonxonasida mehmonlarning 50 foizdan ortig'i oldindan band qilish xizmatidan foydalangan. Solishtirish uchun: "Axsikent" mehmonxonasida bu ko'rsatkich 37,7 foiz, "Turkiston"da esa bronlash tizimi mavjud emas. "Shedevr Plaza"ning bunday ustunligi uning uzoq yillik tajribasi, barqaror imidji va marketing siyosatining samaradorligi bilan izohlanadi.

Endi Namangan viloyatida joylashgan "Axsikent" mehmonxonasida o'rinlardan foydalanish imkoniyatini ko'rib chiqamiz. Mehmonxonada mavjud o'rinlar soni 75 ta bo'lib, bir mijozning o'rtacha qolish muddati 2 kunni tashkil etadi. Maksimal yillik sig'im quyidagi formula orqali hisoblandi:



$$Q_{\max} = P \cdot \left(\frac{360}{t} \right) \cdot 0,9$$

$$Q_{\max} = 75 \cdot \left(\frac{360}{2} \right) \cdot 0,9 = 12150 \text{ kishi}$$

Hisob-kitoblarga ko'ra, raqamli rezervlash tizimi to'liq joriy etilganda, mehmonxona bir yilda 12 150 nafar mijozga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu raqam innovatsion boshqaruv qarorlarining mehmonxona samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi (1-jadval).

1-jadval. "Axsikent" mehmonxonasi quvvatidan foydalanish darajasi (2021–2024-yillar)

Yillar	Mehmonxona quvvatidan foydalanish, kishi		
	Yillik maksimal sig'im (kishi)	Haqiqatda foydalanilgan (kishi)	Foydalanish darajasi, %
2021	12150	1411	11,6
2022	12150	4227	34,8
2023	12150	4658	38,3
2024	12150	5250	43,2

Manba: Muallif tomonidan yig'ilgan birlamchi ma'lumotlar asosida hisoblangan.

2021–2024-yillarda mehmonxona xizmatlaridan foydalanuvchilar soni izchil ortib borgan bo'lishiga qaramay, mavjud o'rinlardan foydalanish darajasi hali ham yillik maksimal sig'imdan past ko'rsatkichni namoyon etmoqda. Biroq, dinamikadagi o'sish ijobiy tendensiyaning ko'rsatadi: 2024-yil yakunlariga ko'ra, taklif etilayotgan tizim doirasidagi maqsadli ko'rsatkichlarga nisbatan o'rinlardan foydalanish samaradorligi 43,2 foizni tashkil etdi. Bu esa mehmonxonada raqamli rezervlash tizimini joriy etish va xizmatlar sifatini oshirish orqali bandlik darajasini yanada ko'tarish uchun katta salohiyat mavjudligini anglatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Namangan viloyatidagi yirik mehmonxonalar faoliyatini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, mehmonxona xizmatlari sifatini oshirish, yangi xizmat turlarini joriy etish va innovatsion faoliyatni muntazam rag'batlantirib borish mehmonlar sonining barqaror o'sishiga hamda daromadlarning ortishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Xizmatlar sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan xarajatlarni strategik jihatdan to'g'ri rejalashtirish mehmonxonalarning bozor pozitsiyasini mustahkamlaydi, raqobatbardoshligini kuchaytiradi va mijozlar sodiqligini oshiradi. Mehmonxona xizmatlaridan foydalanish darajasini ko'tarish, real talabni shakllantirish va uni kengaytirish, avvalo, korxonalar tomonidan mavjud maksimal quvvatdan samarali foydalanishga, tashkiliy-boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga va ko'rsatiladigan xizmatlardan olinadigan daromadni oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq. Namangan viloyati mehmonxonalarning boshqaruv amaliyoti shuni ko'rsatadiki, innovatsion jarayonlarni to'g'ri tashkil etish, raqamli transformatsiya imkoniyatlaridan foydalanish va yangi talab segmentlarini jalb qilish uchun xizmat ko'rsatish muhitini muntazam tahlil qilish, mijozlar qoniqish darajasini o'rganish, aniqlangan ehtiyojlarga muvofiq periodic innovatsiyalarni joriy etish, xodimlar, mijozlar va hamkorlar tomonidan bildirilgan ijodiy g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, mahalliy va global mehmondo'stlik bozoridagi trendlarni tizimli o'rganib borish talab etiladi. Ushbu yondashuvlar mehmonxonalarni raqamli rivojlantirish, qulay o'sish strategiyasini ishlab chiqish, bozor ulushini kengaytirish, biznes samaradorligini oshirish va malakali xodimlarni jalb etish uchun muhim omil hisoblanadi. Hozirgi iqtisodiy rivojlanish bosqichida nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyoda xizmat ko'rsatish sohasida dasturiy ta'minot, raqamli texnologiyalar va texnologik ishlanmalar asosida innovatsion faoliyatni kengaytirishga bo'lgan ehtiyoj keskin ortib bormoqda. Ko'plab mehmonxonalar texnik korxonalar tomonidan ishlab chiqilgan tayyor raqamli yechimlardan foydalanayotgani bilan birga, barqaror innovatsion rivojlanish uchun faqat alohida korxona darajasidagi o'zgarishlar yetarli emas. Innovatsion ekotizim samarali shakllanishi uchun hududning o'zi raqamli va innovatsion infratuzilma bilan uyg'un holda modernizatsiya qilinishi zarur. Hududiy innovatsion ekotizimni rivojlantirish turli soha korxonalari o'rtasida o'zaro manfaatli tajriba almashinuvi, resurslardan oqilona foydalanish, yangi boshqaruv modellari va texnologik yechimlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini yaratadi. Shuning uchun mehmondo'stlik sanoatini kompleks, tizimli va innovatsion yondashuv



asosida rivojlanirish kelgusida turizm salohiyatini oshirish, xizmatlar eksportini kengaytirish va iqtisodiyotning umumiy raqobatbardoshligini yuqori darajaga ko'tarishda muhim strategik omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mas-Verdu F., Ribeiro Soriano D., Roig Dodon S. (2010). Regional development and innovation: the role of services. *Service Industries Journal*, 30(5), 633–641.
2. Zortea-Johnston E., Darroch J., Matear S. (2011). Business orientations and innovation in small and medium-sized enterprises. *International Entrepreneurship and Management Journal*. doi:10.1007/s11365-011-0170-7
3. Abreu M., Greenwich V., Kitson M., Savona M. (2010). Policies to enhance the 'hidden innovation' in services: evidence and lessons from the UK. *Service Industries Journal*, 30(1), 99–118.
4. Junarsin E. (2010). Issues in the innovation service production process: a managerial perspective. *International Journal of Management*, 27(3.2), 616–627.
5. Uriona-Maldonado M., de Souza L.L.C., Varvakis G. (2010). Focus on practice: service process innovation in the Brazilian electric energy sector. *Service Business*, 4, 77–88.
6. Ward R. (2010). Customer equality: a creative tool for SMEs in the service industry. How small and medium enterprises can win the battle for innovation. *Service Business*, 4, 37–48.
7. Gallouj F., Djellal F. (Eds.). (2010). *The Handbook of Innovation and Services: A Multi-disciplinary Perspective*. Edward Elgar Publishing, Cheltenham.
8. Алиева З. К. Инновационный менеджмент в сфере услуг. *Региональные проблемы преобразования экономики*, 2009, №1.
9. Пятацкий В. Е. Управление инновационными процессами: методологические основы и принципы инновационного менеджмента в управлении предприятиями. Учебное пособие. Москва: Издательство МИСиС, 2012.
10. Кикю Т. Ю. Управление инновационными процессами. Учебное пособие. Новосибирск: НГМА, 2005.
11. Сердюкова Ю. С., Валиева О. В., Суслов Д. В. Инновационная система в регионах России: оценка состояния и развития. *Регион: экономика и социология*, 2010, №1, 179–197.
12. Защук М. С. Формирование инновационной стратегии торгового предприятия в конкурентных условиях. *Управление в условиях глобальных мировых трансформаций: экономика, политика, право*, 2017, 284–287.
13. Михайлов С. Н. Инновационное развитие как основа повышения конкурентоспособности предприятия. *Вестник экономики, права и социологии*, 2012, №3, 58–61.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>